



YOSHLAR ISHLARI
AGENTLIGI



RESPUBLIKA YOSH OLIMLAR
KENGASHI

“ILM-FAN VA YOSHLAR”

mavzuyidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
MATERIALLARI TO‘PLAMI
2024-yil 9-aprel

ISBN 978-9910-715-11-2



9 789910 715112

1-qism





YOSHLAR ISHLARI
AGENTLIGI



RESPUBLIKA YOSH OLIMLAR
KENGASHI

“ILM-FAN VA YOSHLAR”

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIIY-AMALIIY KONFERENSIYASI

MATERIALLARI TO‘PLAMI
9-aprel, 2024-yil

Toshkent – 2024

UO‘K 316.422:008(575.1)
KBB 71.0(50’)
X 72

Mas’ul muharrirlar

M.Abdullazoda, F.Muzaffarova, M.Fayzullayeva, F.Nabiyeva

Nashrga tayyorlovchi

F.J.Muzaffarova

Ushbu ilmiy konferensiya “Ilm-fan va yoshlar” O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ilm-fan va ta’lim sohasini rivojlantirishga qaratilgan tegishli qarorlarida ko‘zda tutilgan vazifalar ijrosini ta’minlash, talabalar, magistrantlar, doktorantlar va yosh olimlarning ilmiy tadqiqot natijalarini keng yoritish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi hamda Respublika yosh olimlar kengashi tomonidan tashkil etildi.

“Ilm-fan va yoshlar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi tahrir kengashi:

Saidova Sayyora Alisher qizi – Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) Respublika yosh olimlar kengashi NNT direktori Mehnat va ijtimoiy munosabatlar akademiyasi v.b. dotsent

Zamonov Zokir Turg‘inovich – Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Matkarimova Nilufar Boqijonovna – Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) Yoshlar ishlari agentligi markaziy apparati bosh mutaxassisi;

Muzaffarova Farangiz Jo‘raxon qizi – O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti tayanch doktoranti;

Abdullazoda Madina Rasuljon qizi – O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti tayanch doktoranti;

Fayzullayeva Madina Abdumo‘min qizi – Chirchiq davlat pedagogika universiteti magistranti;

Nabiyeva Firuza Odil qizi – Navoiy davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti.

“Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida madaniy islohotlarni amalga oshirishning dolzarb masalalari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami [Matn]. – Toshkent: “Donishmand ziyosi”, 2024. – 336 bet.

Eslatma! Konferensiya materiallari to‘plamiga kiritilgan maqolalardagi raqamlar, ma’lumotlar haqqoniyligiga va keltirilgan iqtiboslar to‘g‘riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.

ISBN 978-9910-715-07-5

© «Donishmand ziyosi», 2024

4. Тангиров Х. Э., Жомуродов Д. М., Муроджосимова Ш. Х. АХБОРОТ-ТАЪЛИМ МУҲИТИДА ЎҚИТИШНИ ИНДИВИДУАЛЛАШТИРИШНИНГ МУҲИМ ЖИҲАТЛАРИ //инновации в педагогике и психологии. – 2021. – Т. 4. – №. 6.

5. Zhomurodov D., Ulashev A., Tozhiyev A. THE SYSTEM FOR DETERMINING THE QUALIFICATIONS OF INDUSTRY EXPERTS //Евразийский журнал академических исследований. – 2023. – Т. 3. – №. 4 Special Issue. – С. 280-289.

6. Жомуродов Д., Мелиева М. ИННОВАЦИИ В ОБУЧЕНИИ: НОВЫЕ ПОДХОДЫ К РАБОТЕ С МАССИВАМИ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ПРОГРАММАХ //Uz-Conferences. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 867-872.

7. Kayumov O. et al. ELECTRONIC PLATFORM FOR RECOGNITION AND TEACHING OF SIGN LANGUAGE PICTURES BASED ON UZBEK GRAMMAR //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2023. – С. 263-268.

O'ZBEKISTONDA INSON KAPITALINING RIVOJLANISHIDA ILM-FAN VA YOSHLAR SIYOSATI



Shirinov Anvar Qanoatovich, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Buxoro davlat universiteti dotsenti, Buxoro viloyati Vobkent tumani

Rezyume: Mazkur maqolada ilm-fan, inson kapitali va eksponensial taraqqiyot, axborot asri, global iqtisodiy-ijtimoiy tendensiyalar, raqamli texnologiyalarni joriy qilish va yoshlar siyosatiga yangi talablarni ilgari surayotganligi tahlil etilgan. Innovatsion tafakkurga ega, tashabbuskor, yoshlarni tayyorlash, ilm-fanni rivojlantirish, xalqaro indekslarida mamlakat nufuzini oshirish O'zbekistonning strategik vazifalaridan ekanligi mushohada etilgan.

Kalit so'zlar: yoshlar siyosati, inson taraqqiyoti, inson kapitali, xalqaro indekslar

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini takomillashtirishga doir kompleks chora-tadbirlar to'g'risida" 2017-yil 18-iyuldagi PQ-3138-son qarori ijrosini ta'minlash va O'zbekiston yoshlar ittifoqi tizimida salmoqli mehnat stajiga ega bo'lgan fidoyi, yetakchilik qobiliyatini namoyon etgan, yurt kelajagiga daxldorlikni his qiladigan, mehnatsevar va boshqa insoniy fazilatlar egasi bo'lgan yoshlarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish bo'yicha samarali ishlar olib borilmoqda.

"Yoshlar daftari" - ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, psixologik qo'llab-quvvatlashga, bilim va kasb o'rganishga ehtiyoji va ishtiyoqi bo'lgan, ishsiz yoshlarning muammolarini aniqlash va nazoratini olib borish bo'yicha ma'lumotlar bazasi hisoblanadi. "Yoshlar daftari"ga 14 yoshga to'lgan va 30 yoshdan oshmagan quyidagi toifadagi yoshlar kiritiladi: Doimiy va vaqtincha yashash uchun respublikaning boshqa hududiga ko'chib o'tganda, doimiy yashash va vaqtincha turar joyi bo'yicha ro'yxatga olingan kundan boshlab o'n besh kundan kechiktirmasdan "Yoshlar daftari"ga tegishli o'zgartirishlar kiritiladi.

Yoshlar daftariga quyidagilar kiritiladi: ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlar; Iqtisodiy qo'llab-quvvatlashga muhtoj yoshlar; psixologik qo'llab-quvvatlashga muhtoj kishilar; ishsiz yoshlar kiritiladi. Moddiy ahvoli qiyin yoshlarga bir marta beriladigan moddiy yordamni tayinlashning aniq miqdori yoshning hayotiy vaziyati murakkabligini inobatga olgan holda BHMning 4 baravarigacha miqdorda Vasiylik kengashi qaroriga muvofiq to'lab beriladi.

Mamlakatimizda ilm-fanga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilib, ta'lim sohasida keyingi 7 yil ulkan o'zgarishlar, yangilanishlarga boy bo'ldi. Bilim dargohlarining qiyofasi tubdan o'zgarib, moddiy-texnika bazasi mustahkamlandi. Bu o'z navbatida, ta'limning sifati va darajasini oshirgan holda, yoshlar o'rtasida oliy ta'lim olishga bo'lgan ishtiyoqni kuchaytirdi.

Mamlakatimizda yoshlarning oliy ta'lim olishiga katta sharoitlar yaratib berilyotgani tufayli oliy ta'lim muassasalari soni 2,5 barobarga ortib, 200 dan oshdi. Qamrov darajasi esa 9 foizdan 38 foizga oshdi. Eng muhimi, oliy ta'lim olish uchun imtiyozli kreditlash tizimi, ayollarga foizsiz kredit ajratish amaliyoti joriy qilindi. 2017 yilga qadar oliy ta'lim muassasalarida grant o'rinlari soni faqat qisqarib kelgan bo'lsa, so'nggi olti yilda grantlarni ko'paytirish yo'lidan borildi. O'tgan davrda oliy ta'limga ajratilgan davlat grantlari soni 75 foizga, ehtiyojmand oilalar farzandi bo'lgan xotin-qizlar uchun davlat grantlari soni ikki baravarga oshirildi [2]. 2020 yil 13 sentyabrda "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning qabul qilangani davlatimizning shu boradagi maqsadlarini aniq ifodalab berdi. Bu vazifalarning ijrosi ham qamrov darajasini oshirish, ertamiz egalarining orzu-istaglarini ro'yobga chiqarishga xizmat qilishi aniq.

Xalqaro miqyosda ham ta'lim sohasida yetakchi o'rinlarni egallash maqsadida ko'plab tanlovlarda oliy ta'lim muassasalarining faol ishtiroki ta'minlanmoqda. Yurtimizdagi 28 ta oliy o'quv yurti TOP-1000 talik reytingga kirish uchun da'vogar sifatida qayd etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-114-sonli "Ma'muriy islohotlar doirasida yoshlar siyosati va sport sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida" 07.04.2023 yildagi Qaroriga binoan 2023-2024-yillar davomida "Yoshlar daftari" tizimi orqali yoshlarga ko'rsatiladigan ijtimoiy-iqtisodiy xizmat turlari 1,5 barobargacha oshirilishi qayd etildi.

O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligining stipendiyasi tayinlangan sportchilar sonining o'sib borayotganligi muhim hodisa bo'ldi. OTMga kunduzgi ta'lim shakliga kirishda eng yuqori ball to'plagan 200 nafar yoshlar uchun Prezident granti joriy etildi. Shuningdek yosh oilalarga uy-joy xaridi uchun subsidiyalar; "Kelajak kasblari" loyihasi doirasida zamonaviy kasblar, axborot texnologiyalari va xorijiy tillarni o'rganish bo'yicha o'qish xarajatlarini qoplash uchun subsidiya: "Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlarga zamonaviy kasblarni egallashi, axborot texnologiyalarni o'rganishi va ularni xorijiy tillarga o'qitish bo'yicha olti oygacha muddatli o'quv kurslari uchun har oyda bazaviy hisoblash miqdori (300 ming so'm)ning 4 baravarigacha (1,2 mln so'mgacha) miqdorda mahalladagi yoshlar yetakchisining ijobiy tavsiyasi asosida "Yoshlar daftari" jamg'armasi mablag'lari hisobidan subsidiya ajratiladi. Bunda ariza beruvchiga "1+1" tamoyili asosida ayni bir paytda zamonaviy kasb yoki axborot texnologiyalar o'quv kursi bilan birgalikda xorijiy til o'quv kursida o'qish xarajatlariga subsidiya ajratilishi mumkin. "Yoshlar daftari" ro'yxatida bo'lgan, xususiy tashkilotga ishga qabul qilingan yosh xodimlarni kasbga qayta tayyorlash kurslarida o'qitish xarajatlarning 50 foizi kompensatsiya qilinadi;

Ko'p kvartirali uydan xonadon sotib olish uchun subsidiya; yetim bolalar, otana qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar, ular toifasiga kiradigan 18 yoshdan 23 yoshgacha bo'lgan shaxslarni bepul turar joylar bilan ta'minlash; yosh dasturchilar uchun imtiyozli kredit va subsidiya - "Bir million dasturchi" loyihasi doirasida o'quv kurslarini muvaffaqiyatli tamomlagan yoshlarga, IT-park rezidentining o'quvchisi yoki bitiruvchisi bo'lgan yoshlarga kompyuter xaridlari uchun iste'mol kreditlari ajratiladi va ularning foiz to'lovlari kompensatsiya qilinadi. Xalqaro imtihon tizimlari bo'yicha yuqori ball (daraja) olgan yoshlarga imtihon topshirish xarajatlarini to'liq qoplab berish; iqtidorli yoshlarni qo'llab quvvatlash maqsadida Prezident grantlari ajratish ko'zda tutilgan.

O'zbekiston Prezidentining 2021-yil 6 iyuldagi "Respublika oliy ta'lim muassasalariga talabalikka qabul qilingan iqtidorli yoshlarni yana-da qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5172-son Qaroriga muvofiq iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida davlat oliy ta'lim muassasalari bakalavriatining kunduzgi ta'lim shakliga kirish imtihonlarida eng yuqori ball to'plagan 200 nafar yoshlar uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti granti joriy qilingan.

2016 yil 14 sentyabrda qabul qilingan "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonuniga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish bo'yicha ishchi guruh faoliyati yo'lga qo'yildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 20-apreldagi "Yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va bandligiga ko'maklashish, ularni ijtimoiy himoya qilish hamda bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga oid qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6208-son Farmoni mamlakatimizda inson kamolotini rivojlantirmoqda.

"Ajodlar izidan" intellektual o'yini; "Imidj" dizaynerlar televizion tanlovi; "Munozara" kabi tanlovlarning o'tkazilishi yoshlar siyosatining islohotlar yangi bosqichiga xizmat qilayotganligini ko'rsatmoqda. 2023 yilda O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi tashkil etilganligi muhim hodisa bo'ldi. Mazkur vazirlikning tashkiliy tuzilmasi quyidagi tartibda yoshlar siyosatini rivojlantirmoqda:

Yoshlar ishlari agentligi; Qoraqalpog'iston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar yoshlar siyosati va sport boshqarmalari; O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti va uning Nukus va Farg'ona filiallari; Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti va uning Nukus, Samarqand, Farg'ona filiallari; Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar instituti; Oliy sport mahorati instituti; O'zbekiston dzyudo akademiyasi; Sport turlarini rivojlantirish respublika markazlari; Xalqaro shaxmat akademiyasi; Gimnastika sport turlariga tayyorlash markazlari; Olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlari; Respublika olimpiya zahiralari tennis maktabi; Boks bo'yicha Bahodir Jalolov sport mahorati maktabi; Respublika velosport mahorat maktab-internati; Sportning eshkak eshish va gimnastika bo'yicha ixtisoslashtirilgan respublika bolalar-o'smirlar olimpiya zahirasi sport maktablari; Gimnastika bo'yicha Oksana Chusovitina sport mahorati maktabi; Sport turlari

bo'yicha ixtisoslashtirilgan davlat maktab-internatlari; Ixtisoslashtirilgan sport maktablari; Sport maktablari; Olimpiya va paralimpiya shon-shuhrati muzeyi; "Raqamlashtirish va sertifikatlash markazi" MChJ.

Yurtimizda yetuk yoshlarning yetishib chiqishi bolalar uchun namuna, dalda Prezidentimizning 2022 yil 14 martdagi Gimnastika bo'yicha Oksana Chusovitina sport mahorati maktabini tashkil etish to'g'risidagi PQ-163-son qarori sportsevar yoshlarga katta sharoit yaratdi [1].

Bu islohotlarda Davlat boshqaruvi akademiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat xizmatini rivojlantirish agentligi – *argos.uz* (O'zbekiston) va hamkorlar Jahon Banki guruhi, BMT, Germaniya Xalqaro Hamkorlik agentligi (GIZ), KOICA, Fridrix Ebert fondi, Italiya Milliy Ma'muriyat instituti (SNA), Singapur Milliy Boshqaruv instituti, Waseda universiteti, Nagoya universiteti (Yaponiya), Shanxay Ijtimoiy Fanlar Akademiyasi kabi institutlarning roli oshib bormoqda [2].

2024 yil davomida- "Virtual muzey" loyihasi; "Iqtidor" kasb-hunar oromgohi; buyuk adib Zahiriddin Muhammad Boburning bolaligi aks ettirilgan o'zbek multifil'mini tayyorlash; "Imkon" loyihasi; "2024 yilgi istiqbollor" kitob-albomi tayyorlash; "Kreativ park" loyihasi; "Raqs jozibasini" loyihasi; "Qizlar akademiyasi" loyihasi; "Millat Ayollari" teleko'rsatuvini tayyorlash; 2024 yil davomida - Yosh ayol-qizlar uchun "Biznes marafon" loyihasi; 2024 yil davomida- "Qizlar ovozi" loyihasi; "Yosh oila" loyihasi kabi tashkil etilayotgan tashabbuslar inson kapitalini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Adabiyotlar:

1. <https://lex.uz/ru/docs/-5906284>. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Gimnastika bo'yicha Oksana Chusovitina sport mahorati maktabini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida.
2. <https://www.unesco.org/gem-report/en/technology>
3. <https://dba.uz/uz/page/memorandumlar> Davlat Boshqaruvi Akademiyasi

TIL VA NUTQ MADANIYAT KO'ZGUSIDA



Karabayeva Munisa To'liqin qizi, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi Toshkent shahri Mirzo Ulug'bek tumani

Annatsiya: Ushbu maqolada til va nutq o'rtasidagi munosabatlar va ularning madaniyat bilan o'zaro bog'liqliklari borasida fikr yuritilgan. Avvalo, nutq, til va madaniyat tushunchalari haqidabilim va ko'nikmalarga ega bo'lish kerak. Ushbu tushunchalarni talqin qilish yuzasidan ko'plab urinishlar mavjud.

Kalit so'zlar: til, nutq, madaniyat, yondashuvlar, lingvamadaniyatshunoslik.

Til – millat ko'zgusi, ma'naviy va madaniy boyligi, jamiyatning g'ururi va birdamligi timsolidir. Har bir millatning o'ziga xos boyligi hamda milliyligi bor, ular shu jihatlari bilan bir-biridan farq qiladilar. Bilamizki, dunyoda turli xil millat va ellat vakillari bor va ularning o'ziga yarasha madaniyati, urf-odatlarini va milliy boyligilari mavjud. Millat madaniyatining yuksalishi, uni dunyoga tanilishida, tarixiy qadriyatlarini namoyom etishda tilning ahamiyati juda ham kata. Til muloqot jarayonida millatning madaniyatini, qadriyatlarini namoyon etadi. Til bor ekan, millat hech qachon yo'qolmaydi va u barhayot bo'ladi. Til – mamlakat timsoli, millat ko'zgusi der ekanimiz, shu navbatda tilning o'ziga yarasha madaniyati ham mavjud. Agar til madaniyatiga amal qilinmasa, milliy madaniyatga dog' tushishi mumkin. Bilamizki, bizning tilimiz o'zining qadimiy tarixiga ega. To'g'ri, qadim zamonlarda ota-bobolarimiz aynan hozirgi zamonimizdagi rabi muloqot qilishmagan bo'lsa ham, ammo tilimizning rivojlanishiga o'z hissalarini qo'shishgan. O'zbek tili turkiy tillar oilasiga kiradi va bu shuni anglatadiki, bizning tilimiz o'zining boy lug'atiga va so'z boyligilariga ega. Tilimiz ko'plab qarshiliklarga uchragan, agar tarixga nazar tashlasak, sobiq sovet ittifoqi davrida tilimizni yo'q qilish maqsadida yovuz kuchlar tomondan turli xil qarshiliklar yuzaga kelgan va qimmatbaho asarlar yoqib tashlangan. Ammo shunga qaramay, tilimiz asrab qolindi va kelajak avlodga yetkazildi. Milliy til-xalqlar va millatlarning asosiy muloqot manbaidir. Til xalqlarni birlashtiradi, tarbiyalaydi, madaniyatni saqlaydi, avloddan-avlodga o'tishini ta'minlaydi. Tilni sevish, himoya qilish, asrash, ardoqlash, millatni, xalqni, jamiyatni sevish va uni qadrlash bilan tengdir.

Har bir inson o'z ona tilida so'zlaydi, tasavvur qiladi, tafakkur qiladi, his qiladi. Til muloqot vositasigina bo'lib qolmay, u insonning ichki olamini ifodalaydi, dunyo ne'matlarini idrok qilishga ko'maklashadi, dunyoqarash va kamolotni belgilab beradi. Ta'kidlaganimizdek, tilning madaniyati bor va ularni o'rganish har bir insonning majburiyati hisoblanadi. Chunki u inson o'z millati va jamiyati timsoli ekanligini ko'rsatib bermoqda. Suhbat davomida asosiy qoidalardan biri o'ylab, tafakkur

Investigating how language and society shape gender dynamics through cognitive semantics	
Saparboyev Kamronbek Kamolbek o'g'li	
O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasida ilm-fan va yoshlar masalalari	131
Qurbonaliyeva Maxarram Komil qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tarbiyaviy kompetensiyani shakllantirish	135
Mirsalikhova (Mirsalixova) Robiya	
Inhibition in language learning process and its effect on oral productive skill	139
Нодира Одилова Ғолибжон қизи	
Ўзбекистонда учровчи thomisidae оиласи айрим вакилларининг тарқалиши	142
Turayev Dilshod Shodavlatovich	
Baqlajon globus navida ilmiy tadqiqotlar	144
Элмуродов Фахриддин Фарходович	
Корхоналар бошқарувида стратегик режалаштириш усулини қўллаш борасида хориж тажрибаси	147
Xidirov Xoshim Ibodullaevich	
Korrupsiyaga qarshi ma'rifat va uning vazifalari	152
Sherkulova Makhliyo Khasan kizi	
The text of advertising slogans as a linguocultural tool for conveying the national character	155
Maxmudjonova Muborak Farxodjon qizi	
Fabula va syujetning o'zaro farqlanishi hamda fabula vositalarining badiiy asardagi ahamiyati	159
Raximova Nozima G'ayrat qizi	
Yosh davrlar psixologiyasi	161
Saliyeva Zuhro Bog'ibek qizi	
Iqlim o'zgarishlari natijasida kelib chiqadigan muammolar	166
Ulug'murodov Elshod Abdusalim o'g'li	
Xolmatova Zarina Shamsiddin qizi	
Veb dasturlashtirishga kirish mavzusida zamonaviy mobil ilmolarni ishlab chiqishning didaktik prinsiplari	169
Валиева Наргизахон Замир кизи	
Понятие структур знаний как одного из основных в когнитивной лингвистике	176
Pirmaxmatov Shohjahon Avaz o'g'li	
Yapon tili yozuv tizimida iyerogliflarning o'rni va ishlatilish vaziyatlari	179
Назарова Райхон Шавкатовна	
О реформаторах в исторических романах хилари мантел	181

Каюмова Нодира Карим кизи	
Сравнительная характеристика деепричастий русского и узбекского языков	185
Madina Xasanova	
"Qora ko'zlar" romanida qo'llangan sinonim frazeologizmlarning funksional-semantik xususiyatlari	188
Mansurova Nigora	
Yoshlar siyosati va gender tengligi masalasi	190
Juliboyev Alimardon Abdulmajid o'g'li	
Alisher Navoiyning tarix sohasidagi asarlari tahlili	193
Inoyatov Javohir Ne'matillo o'g'li	
Yapon va o'zbek tillaridagi ortirma nisbat kategoriyalarining qiyosiy tahlili	197
Ashurova Sojida Abdusamad qizi	
Boshlang'ich ta'lim-kelajak poydevori	199
Холмуродова Гулхаё Нематовна	
Теория лексико-семантического поля и история его развития	201
Исмаилова Сурайёхон Иззатовна	
Янги ўзбекистоннинг демократик ислохотлари ҳамда аёлларнинг ҳуқуқ ва эркинликлари	204
Meliyeva Mohira Zafar qizi	
Interfaol elektron ta'lim resurslarini yaratishda sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish	209
Shirinov Anvar Qanoatovich	
O'zbekistonda inson kapitalining rivojlanishida ilm-fan va yoshlar siyosati	214
Karabayeva Munisa To'lqin qizi	
Til va nutq madaniyat ko'zgisida	218
Rajapboyeva Sumbul Bahrom qizi	
Sog'likni saqlashda data mining algoritmlari	221
Gulmirzayeva Go'zal Alisher qizi	
Ta'lim muassasalari boshqaruvida rfid-texnologiyalarining o'rni	224
Eshqurbonova Aziza Bozor qizi	
Badiiy va jonli dialogik nutq xususiyatlari	226
Диёра Нурмухамедова	
Инновационные тенденции в сфере проектирования энергосберегающих зданий в современном узбекистане	230